

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 787 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini "yashil" iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqulovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlar.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinovna	



“Deviant xulq-atvorli o’smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o’g’li, Qurbanov Ulug’bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o’zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo’rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo’nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O’zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o’g’li	
Qishloq xo’jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o’zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po’latov Abdulloh Xolxo’jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo’llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o’g’li	
Sun’iy intellektlar yordamida o’quvchilarni hayotiy faoliyat ko’nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo’rayevna, Kurbanov Azimjon Jo’raboy o’g’li	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o’g’li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
O’zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o’zgarish tendensiyalari va istiqbollari	326
Ilyosov Asrorjon Axrorjon o’g’li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi	330
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Inson resurslarini o’rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil	336
Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli	340
Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari	346
Xoliyorov Xomid Boynazarovich	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия	352
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Farg’ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko’rsatkichlarining o’zgarishi: panel regressiya tahlili	362
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi	
O’zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari	368
Farmonov Ilhomjon Iqboljon o’g’li	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish	374
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish	380
G’aniev Elyor Sobirjonovich	
O’zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o’tishning ahamiyati	386
Mirzayev Muzaffar Maxmudovich	



The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region	392
Ospanova Feruza Bazarbaevna	
“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета	397
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishni takomillashtirish	403
Xamidova S.Ya.	
Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari va ularni takomillashtirish.....	409
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
O'zbekistonda kichik turar joy biznesini rivojlantirishda xorijiy tajribalar	414
Yo'ldashev Bekzodjon Sherzodjon o'g'li	
Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar.....	419
Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	426
Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi	
Risk management in commercial banks, methodological approaches and practical implementation	433
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi	
The impact of competition on economic growth: evidence from uzbekistan's automotive industry.....	439
Saydaliyeva Dilrabo Baxriddin qizi	
Raqamli texnologiyalarning oliy talim xizmatlarini rivojlantirishdagi o'rni.....	444
Mirzaxadjayeva Shahzoda Shuxratovna	
Развитие производства сельскохозяйственной продукции путем развития цифровых технологий.....	450
Юсупов Мухиддин Соатович	
Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	457
Berdiyev Akram O'ktamovich	
Iqtisodiy tarmoqlarni soliqqa tortish orqali investitsiya loyihalarini rivojlantirish.....	463
Sharipov Eldor Salohiddin o'g'li	
Iqtisodiyotda investitsiya va kredit salohiyatini bank faoliyatiga ta'siri.....	468
Ergashova Nilufar Sobirovna	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshlik salohiyatini boshqarishni takomillashtirish	473
Tashmukhamedova Karima Samatovna	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.....	479
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
Xalqaro sayohat lug'ati va uning shakllanishi.....	487
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni o'zbekiston respublikasi hisob tizimini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati.....	492
Quvvatov G'olibjon Baxtiyor o'g'li	
Kooperatsiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati.....	501
Mirzayev Musurmon Umidullayevich, Ziyadullayev Ilhom Narkobilovich	
Использование методов математического моделирования при внедрении коммерческих автоматических систем	505
Курбанова Рахима, Ахмедов Мехрохжон	
Tijorat banklari kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish yo'llari.....	511
Vasiyev Alisher Samiyevich	
Механизмы трансформации неформального сектора в официальную экономику на основе финансовых инструментов.....	515
Кошанов Абдимурат Азат ули, Муртазаев Шахрух Коньскайлиевич	



The impact of tourism on the economy of Uzbekistan	519
Xaydarova Marjona, Muxamedboyeva Muxlisa, Umarov Kamron, Usmanova Aziza	
Mintaqada gastroturizm rivojlanishining iqtisodiy asoslari va zamonaviy tendensiyalari	525
Masharipova Manzura Alimbayevna	
Tikuv-trikotaj korxonalari brend jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini	535
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Bank tizimida hisobotlarni avtomatlashtirish texnologiyalari	542
Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li	
Engineering programs in Uzbekistan on the verge of fifth industrial revolution	547
Khasan Khankeldiyev	
Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruvini yaxshilashda korporativ madaniyatning ahamiyati	551
Akramova Nazokat Israilovna	
Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni	562
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
O'zbekiston sanoat tarmoqlarida kooperatsiya asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari	572
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va ularning tahlili	578
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini tahlil qilish	583
Kilicheva F.B., Mengnorov A.A., Bozorova O.R.	
Bog'dorchilik tarmog'ida klasterlarni joriy qilishda yevropa tajribasini qo'llash imkoniyatlari	591
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
To'qimachilik klasterlarini boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	598
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Barriers to tourism infrastructure development in uzbekistan: a critical analysis	605
Sarvinov Shodmonova	
Xalqaro bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish	609
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
O'zbekiston respublikasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi risklarni boshqarish	620
Yusupova Zilola Ismoiljon qizi	
Korxonaning iqtisodiy barqarorligiga erishishning zamonaviy tendensiyalari	626
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Qishloq joylari maishiy xizmat ko'rsatish sohasida axborot resurslaridan samarali foydalanish	631
Xamdamov Eldor Toshmurovich	
Meva-sabzavotlar eksportida transport koridorlari va vositalarini tanlash xususiyatlari	636
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Рынок рабочей силы в узбекистане и ее воспроизводство	644
Шакиров Амаль Улугбекович, Камилова Наргиза Абдукахаровна	
Деньги и их функции в экономике	650
Мурадиллаев Мансур Мехроживич, Камилова Наргиза Абдукахаровна	
Развитие сельского хозяйства в узбекистане	654
Махмудов Алишер Мухтарович, Камилова Наргиза Абдукахаровна	
Инвестиции и инновации в химической промышленности узбекистана: современные тенденции и перспективы	658
Хусаинов Равшан Рахимович, Султанходжаев Аманулла Асадуллаевич	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish	666
Mardonova Shoxsanam Baxodirovna	
Definition of agritourism as a multifunctional development in rural areas	672
Aktamov Olimjon Abdugani ugli	
Kameral soliq tekshiruvida smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi	680
Qurbonov Muxiddin Abdullaevich	
Проблемы регулирования государственно-частного партнерства и рекомендации по их решению (на примере безработицы в республике узбекистан)	687
С.Э. Холмуратов	



Автоматизация аудиторских процедур с использованием искусственного интеллекта.....	692
Ходжарахманова Назира Бахтияр кизи	
Past karbonli iqtisodiyotga o'tish zaruriyati va uning omillari.....	701
Valiyev Axliddin Aropitdinovich	
Yengil sanoatda zamonaviy tikuv mashina-kichik robotlarning mexanizmlarini mukammallashtirish	705
Sirojova Muxabbat Sodiqlik qizi, Kurbanov Fazliddin Aminovich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining institutsional va iqtisodiy asoslari	710
Kuzieva Nargiza Ramazanovna, Bobomuratova Manzura Panji qizi	
Foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'lash tartibi	717
Yangieva N.S.	
Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasi qo'llab-quvvatlashning amaldagi holati	722
Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li	
Motivation, goal-setting, and organizational performance: a case study from uzbekistan's chemical industry	726
Mamataliev Anvar Ergashevich, Bobur Urinov	
Применение искусственного интеллекта при организации налогового администрирования узбекистана	733
Н.А. Артиков	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omillar.....	737
Sharofiddinova Gulnoza Iloxmonovna	
Raqamli texnologiyalarning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri	745
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Suv tanqisligi sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asoslari	750
Qosimov Maxamatjon Sulaymanovich	
Rivojlanayotgan iqtisodiyotda raqamli va raqamli bo'lmagan korxonalar tahlili	761
Raxmonov Nodirjon Raxmonjon o'g'li	
Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshini o'zgarishi sharoitida keksalarning ijtimoiy ta'minotiga xavflarning ortishi.....	767
Toyirov Shohboz Ziyodullo o'g'li	
Oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazorat samaradorligini ta'minlash ichki nazorat xizmatlari	773
Xaydarov Baxrom Xolmuradovich	
Moliya bozorida xususiy banklar faolligini ta'minlash istiqbollari	777
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Budjet daromadlari ijrosini ta'minlashda soliqlar hisobi va tahlilining ahamiyati	782
Abdullaev Abror Bozarboevich	



BUDJET DAROMADLARI IJROSINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR HISOB VA TAHLILINING AHAMIYATI

Abdullaev Abror Bozarboevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliyaviy tahlil" kafedrası dosenti, PhD.,
abdullayev_abror@tsue.uz,
ORCID: 0000-0001-8981-6708

Annotatsiya: Ushbu Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda soliq siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, soliq tizimini soddalashtirish, raqamlashtirish hamda soliq ma'muriyatini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Davlat budjeti daromadlarini oshirishda soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning aniqligi va o'z vaqtida bajarilishi muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanib, elektron soliq hisobotlarini joriy etishning samaralari ko'rsatilgan. Maqola davomida budjet daromadlari prognozlar va ularning ijrosi tahlil etilib, soliq tushumlarining barqaror o'sishi va iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan bog'liqligi isbotlangan. Shuningdek, soliqlar bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda soliq to'lovchilarning mas'uliyatini kuchaytirish imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Soliqlar, davlat budjeti, soliq hisobi, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, soliq monitoringi, soliq auditi, soliq tizimi, soliq majburiyatlari.

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in the field of tax policy in the Republic of Uzbekistan in recent years, the directions of simplification, digitization of the tax system and improvement of tax administration. It is emphasized that the accuracy and timeliness of tax calculations are of great importance in increasing state budget revenues, and the effects of the introduction of electronic tax reports are shown. The article analyzes budget revenue forecasts and their implementation, proving their connection with the stable growth of tax revenues and the expansion of economic activity. It also discusses the possibilities of increasing financial transparency and strengthening the responsibility of taxpayers through the automation of tax calculations with the budget and the introduction of digital technologies.

Key words: Taxes, state budget, tax accounting, direct taxes, indirect taxes, tax monitoring, tax audit, tax system, tax obligations.

Аннотация: В данной научной статье автором рассматриваются процессы реализации реформ в системе налоговой политики, в частности, вопросы упрощения системы налогообложения, вопросы цифровизации, проведён анализ основных направлений совершенствования методов налогового администрирования. В целях увеличения доходов государственного бюджета указана необходимость в постоянном повышении значимости и эффективности при исчислении налогов, обеспечении своевременности уплаты налогов, показана эффективность использования электронных налоговых отчётов. Автор, основываясь на результатах проводимых исследований, показывает зависимость устойчивого роста налоговых поступлений и расширение экономической деятельности от научного обоснованного прогноза доходов бюджета и его исполнения. Автором также подчёркиваются возможности повышение ответственности налогоплательщиков, укрепление финансовой прозрачности за счёт внедрения цифровых технологий, автоматизации взаиморасчётов.

Ключевые слова: Налоги, государственный бюджет, налоговая отчётность, прямые налоги, косвенные налоги, налоговый мониторинг, налоговый аудит, налоговая система, налоговые обязательства.



KIRISH

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat budjeti daromadlarini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq yukini engillashtirish hamda hisob-kitob tizimini shaffoflashtirishga qaratilgan. Soliq tizimini isloh qilish jarayonlari, birinchi navbatda, soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliqlarning umumiy sonini qisqartirish, raqamlashtirish va soliq ma'muriyatini takomillashtirishni o'z ichiga olmoqda. Soliq kodeksining 2020 yilda yangi tahririda qabul qilinishi, 2020 yil 30 dekabrda PQ-4938-sonli Qaror bilan «Soliq ma'muriy ishlarini avtomatlashtirish» va «Soliq to'lovchilar bilan elektron hamkorlik» konsepsiyasini amalga oshirilishi shuningdek, 2018 yil 26 dekabrda PF-5611-sonli Farmon bilan tasdiqlangan Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi mamlakatda soliq tizimini tubdan yangilashga asos bo'ldi. Unda soliq yukini kamaytirish, hisob-kitob tizimini shaffoflashtirish, soliq ma'muriyatini raqamlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Bu kabi tizimli islohotlar natijasida, davlat va xususiy sektorda soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish mexanizmi o'zgarmogda: an'anaviy qog'oz shaklidagi hisob-kitoblar o'rnini elektron hisobotlar, avtomatlashtirilgan dasturlar va raqamli monitoring tizimlari egallamoqda. Aynan shunday sharoitda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va buxgalterlar oldidagi asosiy vazifa – amalga oshirilayotgan yangiliklarga moslashish, hisob-kitoblarni zamonaviy uslubda, qonun talablariga to'liq muvofiq yuritish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada soliqlar bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni hisobga olishning amaliy jihatlari, mavjud qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq hisobi tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida to'g'ridan to'g'ri ta'rif berilmagan bo'lsada, unig asosida shakllangan tushunchaga quyidagicha ta'rifni ifodalasak bo'ladi:

Soliq hisobi – bu soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish va hisobotlarni tayyorlash faoliyatidir.[1]

Abdullaev H., Jo'raev M. va G.Mahkamovalar o'zlarining “Buxgalteriya hisobi” darsligida shunday ta'rif berishgan:

Soliqlar hisobi – bu korxonaning davlat budjeti oldidagi majburiyatlari doirasida soliq majburiyatlarini aniqlash, hisobga olish, hisob-kitob qilish va ularni to'lash tartibini yurituvchi hisob bo'limi hisoblanadi.[5]

Shvesiya olimi Piter S. Xolmgren tomonidan “Soliq hisobi - soliq deklarasiyalarini tayyorlash va kelajakdagi soliq majburiyatlarini rejalashtirish uchun qo'llaniladigan qoidalar va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. U o'z maqsadi va huquqiy asosi jihatidan moliyaviy hisobdan farq qiladi” deb ushbu tushunchaga ta'rif bergan.

Jorj Sigel va Devid Livingstonlar tomonidan Soliq hisobi – bu soliqqa tortish daromadlari va soliq majburiyatlarini hisoblash usullari va prinsiplariga qaratilgan. U moliyaviy hisobdan farq qiladi, chunki uni soliq qonunlari tartibga soladi, moliyaviy hisob standartlari emas deb ta'rif berib o'tishgan.[6]

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, Xolmgren soliq hisobini nafaqat mavjud majburiyatlarni hisoblash vositasi, balki soliq rejalashtirish, ya'ni kelajakdagi soliq yukini boshqarish vositasi sifatida ham qaramoqda.

Yuqorida “Soliq hisobi” bo'yicha keltirilgan ta'riflar asosida ushbu tushunchani quyidagicha izohladik:

Soliqlar hisobi – bu davlat bilan soliq munosabatlarida bo'ladigan har qanday sub'ekt (jismoniy va yuridik shaxs)ning soliq majburiyatlarini aniqlash, hisobga olish va tegishli tashkilotlarga hisobot berish bilan bog'liq tizimli faoliyat hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida soliqlar hisobi va hisobotini yuritishning amaldagi holati milliy qonunchilik asosida rivojlanmoqda va zamonaviy talablarga moslashtirilmoqda. Davlat soliq xizmati tizimi elektronlashtirilmoqda, bu esa soliq hisob-kitoblarni yuritishni osonlashtiradi hamda hisobotlarni o'z vaqtida va aniq yuritish imkonini yaratmoqda.

Soliq to'lovchilar uchun 2020 yildan boshlab soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish amaliyotga joriy qilindi. Bu avtomatlashtirilgan jarayon bo'lib, soliq organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirdi. Soliq organlari tomonidan soliq majburiyatlari va to'lovlarini monitoringi avtomatik tarzda shakllanganligi sababli, soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini vaqtida bajarilishi ta'minlanmoqda.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2021-2025 yillardagi budget daromadlari prognozi tahlili ¹mlrd.so'm

t/r	Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1.	Bevosita soliqlar	40584,6	49671,9	44342,0	47127,1	85610,9	65700,0
1.1	Foyda solig'i	22058,7	30984,8	35448,6	37140,4	44282,7	49704,8
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	2458,1	1832,9			2851,1	
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	16067,8	16854,2	8893,4	9986,7	38477,0	15995,2
2.	Bilvosita soliqlar	58285,0	53663,7	69814,4	84515,5	111654,5	98787,4
2.1	Qo'shilgan qiymat so-lig'i	44199,4	38063,2	53300,0	63775,4	74045,7	71837,9
2.2	Aksiz solig'i	11373,6	11849,3	11687,8	13988,1	22769,2	15480,5
2.3	Bojxona boji	2712,0	3751,2	4826,6	6752,0	14839,6	11469,0
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	20796,0	20841,2	13760,3	14780,1	31831,3	20308,4
3.1	Mol-mulk solig'i	2369,6	2203,3			6715,0	
3.2	Er solig'i	2474,4	3106,7			7171,1	
3.3	Er qa'ridan foyda-langanlik uchun soliq	15606,4	15146,8	13760,3	14780,1	16684,2	20308,4
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	345,6	384,4			1261,1	
4.	Dividendlar			30222,3	29532,2	23755,0	34141,2
5.	Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar	8794,4	23511,3	4448,0	7488,0	17851,4	23816,3
JAMI:		128460,0	147688,1	162587,0	183442,8	270703,1	242753,2
Budget daromadlarning		100	114,97	126,57	142,80	210,73	188,97
2021 bazis yilga nisbatan dinamik o'zgarishi, foizda		100	114,97	110,09	112,83	147,57	89,68

Budget daromadlari prognozi 2022-2025 yillardagi ko'rsatkichlari bazis yilga nisbatan va zanjirsimon dinamik o'zgarishini oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2025 yilda budget daromadlari prognozi 242753,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024 yilga nisbatan deyarli 10,33 forizga kamaygan bo'lsada, 2021 yilga nisbatan 101,87 foizga ya'ni ikki baravardan ko'proqga oshgan. Bunday o'zgarishiga asosan bevosita va bilvosita soliqlar miqdorining ko'payishi ta'sir ko'rsatgan.

Soliqlarni budgetga o'z vaqtida tushirilishi ya'ni budget daromadlari roeja ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishi davlat moliyasining samarali va barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu davlatning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi zarur. Quyidagi jadvalda

2020-2024 yillar uchun davlat budgeti daromadlari reja ko'rsatkichlarini bajarilishi va dinamik o'zshgarishini ko'rib chiqamiz.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2021-2025 yillardagi budget daromadlari ijrosini tahlili ²mlrd.so'm

t/r	Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Bevosita soliqlar	45206,9	58930,4	64447,1	73103,6	90833
1.1	Foyda solig'i	28712,2	38363,3	37649,9	40778,9	52620
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	1353,9	1649,4	2512,7	2407,3	2829
1.3	Jismoniy shaxslardan oli-nadigan daromad solig'i	15140,8	18917,7	24284,5	29917,4	35384
2.	Bilvosita soliqlar	46428,4	56290,4	71390,2	83325,8	88341

1 Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

2 Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	31177,4	38439,0	52189,4	57885,3	59280
2.2	Aksiz solig'i	11697,3	13086,5	13455,0	15834,4	19060
2.3	Bojxona boji	3553,7	4764,9	5745,7	9606,1	10001
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	21257,0	23036,4	23912,8	28079,5	36363
3.1	Mol-mulk solig'i	1974,3	2457,3	4015,4	5097,7	6805
3.2	Er solig'i	2386,7	4082,8	5305,9	6890,1	8216
3.3	Er qa'ridan foydalangan-lik uchun soliq	16417,1	15811,9	13887,4	15300,3	20170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791,4	1173
4.	Boshqa daromadlar va so-liq bo'lmagan boshqa tu-shumlar	20045,8	26542,2	42113,7	47212,5	58886
JAMI:		132938,0	164799,4	201863,7	231721,3	274423
Budjet daromadlarning		100	123,97	151,85	174,31	206,43
2020 bazis yilga nisbatan dinamik o'zgarishi, foizda		100	123,97	122,49	114,79	118,43
Budjet daromadlarining zanjirsimon dinamik o'zgarishi, foizda		103,49	111,59	124,16	126,32	101,37

O'zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillardagi budjet daromadlari ijrosi tahlili natijasida iqtisodiy faoliyat va soliq bazasining barqaror o'sishi kuzatilib, 1-jadvaldagi 2020-2025 yillardagi budjet daromadlari prognozi ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganimizda, barcha yillardagi reja ko'rsatkichlarning ortig'i bilan bajarilganini ko'rishimiz mumkin. Jami budjet daromadlari ijrosi 2020 yildagi 132,9 trln so'mdan 2024 yilda 274,4 trln so'mgacha o'sib, qariyb ikki barobarga yaqin oshib, davlat moliyalashtirishining mustahkamlanishiga zamin yaratildi. Bevosita soliqlar, jumladan, foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i da sezilarli o'sish kuzatildi, bu esa iqtisodiyotda faoliyatning kengaygani va aholining daromadlari darajasining oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bilvosita soliqlar, ayniqsa qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i ham budjetga katta hajmda daromad keltirdi, bu ichki bozorning faolligini va iste'mol darajasining oshganligini aks ettiradi.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar ham muntazam o'sib borgani mamlakatning tabiiy resurslaridan samarali foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar miqdori ham sezilarli o'sib, budjetning barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha manba hisoblanadi. Umuman olganda, budjet daromadlarining zanjirsimon dinamikasi yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish potentsialining va moliyaviy barqarorligini ortib borayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, kelgusi yillarda ham iqtisodiy o'sishni saqlab qolish va soliq tushumlarining samaradorligini oshirish uchun soliq tizimi va resurslarni boshqarishda muntazam islohotlar amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-2024 yillardagi budjet daromadlari ijrosi ma'lumotlari soliqlar bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarning samaradorligini va davlat moliyasining barqarorligini ko'rsatadi. Bevosita va bilvosita soliqlardan tushgan daromadlar budjet manbalarida asosiy o'rinni egallaydi va ularning o'sishi iqtisodiy faoliyatning kengayishi hamda soliq hisob-kitoblarning samarali amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budjetga tushumlarning katta qismini tashkil qiladi. Soliq to'lovchilarning o'z vaqtida va to'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishi daromadlarning reja bo'yicha ko'rsatkichlarni bajarilishini ta'minlanishiga erishilgan. Shuningdek, soliq xizmati tomonidan hisob-kitoblarning nazorati va monitoringi orqali soliq bazasini kengaytirish va noqonuniy tushumlarni kamaytirishga olib kelgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va bojxona boji kabi soliq turlari ichki bozor va importni hisobga olgan holda budjetga muhim daromadlar keltiradi. Soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarning aniqligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi tovar aylanmasi va savdo operatsiyalaridan tushuvchi soliqlar miqdorini oshirishga xizmat qilgan. Soliq to'lovchilarning hisob-kitoblari ustidan nazoratning kuchaytirilishi va elektron soliq tizimlarining joriy etilishi budjetga soliq tushumlarining o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlanishiga hamda reja ko'rsatkichlarni ortig'i bilan bajarilishiga erishilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda soliqlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblarni to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish mamlakat moliyasiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq bazasining kengayishi, hisob-kitoblarning to'liqligi va nazoratning amalga oshirilishi natijasida budget daromadlari sezilarli darajada o'sdi. Bu tendensiya davlatning ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini mustahkamlab, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim hisoblanadi. Shuningdek, kelajakda ham soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yanada takomillashtirish, elektron nazorat tizimlarini kengaytirish va soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash orqali budget daromadlarining barqaror o'sishini saqlash zarur.

Soliqlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida va aniq yuritish davlat budgetiga tushuvchi soliq mablag'larining barcha darajada to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlaydi. Bu hisob-kitoblar soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni nazorat qilish, moliyaviy shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va elektron hisob-kitob tizimlari soliq hisobotlarini avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish va soliq to'lovchilarning mas'uliyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu tizimlar soliq organlari uchun hisob-kitoblarni tezkor tekshirish va monitoring qilish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar ustidan samarali nazorat va auditni amalga oshirish soliq tushumlarining o'sishini ta'minlaydi, noqonuniy hisob-kitoblarning oldini olishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. (2020). Янги таҳрир. <https://lex.uz/docs/4674893>;
2. 2021-2025 йиллар учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонунлари, <https://lex.uz/docs/5801127>;
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2018). Солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида (ПФ-5611-сон Фармон). <https://lex.uz/docs/4123625>;
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. (2020). Солиқ маъмурий ишларини автоматлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида (ПҚ-4938-сон қарор). <https://lex.uz/docs/5193286>;
5. Абдуллаев, Х., Жўраев, М., & Маҳкамова, Г. (2020). Бухгалтерия ҳисоби (2-нашр). Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти;
6. Siegel, G., & Livingston, D. "Finance and Accounting for Non-Financial Managers", 2017;
7. Soliq.uz. (n.d.). Ўзбекистон Республикаси солиқ қўмитаси расмий сайти. <https://soliq.uz>;
8. My.gov.uz. (n.d.). Ягона интерактив давлат хизматлари портали. <https://my.gov.uz>;
9. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги расмий сайти. <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2024-2>, https://api.mf.uz/media/document_files/ijro_2021.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
